TURK ELI

International Scientific Journal



Volume 1 | Special Issue Part 1 | 2026

Manas, Kyrgyz Republic

www.turkeli.science

TURK ELI
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

The journal is officially registered as a mass media outlet by the Justice Department of Manas Region under the Ministry of Justice of the Kyrgyz Republic in accordance with Registration Certificate No. 10339 dated March 11, 2024. The journal is registered under the title “TURK ELI” International Scientific Journal and is authorized for publication in Kyrgyz, Turkish, Uzbek, Kazakh and English languages.

Honorary President
Sarvar Ispahi

Editor-in-Chief
Jenishbek Duysheev

Deputy Editor in-Chief
Rahmonali Hasanov

Editorial Board:

Ablat Khodjaev (Prof. Dr.)
Shakimashrip Ibraev (Prof. Dr.)
Shohistahon Uljaeva (Prof. Dr.)
Kubanychbek Kalchakeev (Prof. Dr.)
Abdimajid Madraimov (Prof. Dr.)
Shukhrat Sattorov (Prof. Dr.)
Ibrahim Kush (Dr.)
Faig Elekberli (Dr.)
Erdenebayar Nasanbat (Dr.)
Gulnara Anarbaeva (Dr.)
Nurgul Aldabek (Dr.)
Nurjamal Myrzabaeva (Dr.)
Takhirjan Kazakov (Dr.)
Elmira Hazratkulova (Dr.)
Azamat Kaliev (Dr.)
Abdulvakhidkhon Nuriddinov (Dr.)

About this Special Issue

This Special Issue presents selected papers from the International Scientific Conference
Ijtimoiy fanlar va jamiyat taraqqiyoti:
barqaror rivojlanishning strategik yo‘nalishlari

Technical Editor
Laziz Baxtiyorov

Publisher: turkeli.science
E-mail: editor@turkeli.science


TOSHKENT IQTISODIYOT VA TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
TITU
TOSHKENT – 2022
TOSHKENT IQTISODIYOT VA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI
IJTIMOIY FANLAR VA JAMIYAT TARAQQIYOTI:
BARQAROR RIVOJLANISHNING
STRATEGIK YO‘NALISHLARI
GLOBAL MIQYOS
STRATEGIYA VA TARAQQIYOT
ILM-FAN VA INNOVATSIYA
JAMIYAT VA INSON KAPITALI
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
ILM-FAN ORQALI BARQAROR KELAJAK SARI
2026-yil 15-may

Contents

A. A. Djumanqulov *A. A. Beknazarov*	Psychological and Methodological Principles of Effective Lesson Time Management by Teachers	6
B. A. Khasanova *R. Abdullaev*	Digital Transformation in Central Asia: An Assessment Based on the Case of the Kyrgyz Republic	8
Yu. Akhmedov	The Strategic Importance of Crisis Communication in Ensuring National Stability in Polyethnic Societies	13
O. F. Egamberdiev	The Role, Determinants, and Effectiveness of Marketing Strategies in the Sustainable Development of the Transport System: Evidence from the Khorezm Region	17
R. Sh. Ibrahimova	Development History of Parasitology in Azerbaijan	20
B. O. Turaev	Ali Qushchi: The Scholar Who Introduced the Achievements of Ulugh Beg's Academy to the World	22
H. Hamidov	The History of Artists during the Reign of Amir Temur and the Timurid Period	26
S. Dj. Saidova	National Costume as a Historical and Spiritual Phenomenon	30
K. M. Yuldoshev	Innovation in Education	33
A. S. Kaliev *N. B. Bazarbaev*	Political Development and the Transformation of Civil Identity in Uzbekistan: The 690th Anniversary of Amir Temur and the Politics of	36
K. M. Yuldoshev *Z. Murodova*	Rabat-i Malik Caravanserai: A Key Waystation on the Great Silk Road	39
D. S. Saparboeva	Features of the Development of Logical Thinking in Primary School Mathematics Lessons	42
Sh. O. Sayfullaeva	Developing Reading Skills through Authentic Texts in Teaching Russian as a Foreign Language	44
N. Kh. Kholyigitova	The Role of Personal Values–Oriented Career Planning in Higher Education for Societal Development	46
M. N. Inatov	The Application of Sociological and Historical Analysis Methods in Letter Analysis	48
M. G. Nazarova	Socio-Psychological and Educational Strategic Directions for Preparing Future Engineers for Professional Activity in the Context of Societal Development	51
I. H. Jabrayilov	Common Turkish History: Research and Teaching Issues	54
O. V. Kon	Preparing the Next Generation of Social Educators in Higher Education: A Competency Model in the Context of Global Societal Challenges	56
D. A. Egamberdieva	The Semantic Characteristics of Nature Symbols in Uzbek and English Fairy Tales	60
Q. H. Inoyatov	The Scientific Legacy of Our Great Ancestors as a Source of Education and Moral Values	64
A. J. Toshboboev	The Integration of Social Sciences and the Education System for Sustainable Societal Development: An Analysis of Historical and Contemporary Approaches	66
G. B. Ernazarov	The Role of the Service Sector in the National Economy: Significance, Economic Analysis, and Strategies for Improvement	69
Ə. M. Zeynalov	Azerbaijan in French Literature	72
K. M. Gulomova	The Role of Modern Pedagogical Technologies in Enhancing Teachers' Professional Competence	76
S. Ibrohimov	Culture and Historical Heritage as Economic Resources: Innovative Management and Strategies for Sustainable Growth	79
J. O. Kucharov	Enhancing Workforce Potential in Small Business Enterprises in Uzbekistan	82

Socio-Psychological and Educational Strategic Directions for Preparing Future Engineers for Professional Activity in the Context of Societal Development

Nazarova Marghuba Gulamovna (Senior Lecturer)[1]
nazarovamarguba85@gmail.com | ORCID: 0009-0006-1942-9423
[1.] Olmaliq State Technical Institute
Tashkent, Uzbekistan

Abstract.
This article analyzes the socio-psychological and educational strategic directions of preparing future engineers for professional activity. In the context of globalization and the digital economy, the pedagogical and psychological foundations of engineering education are discussed, as well as the role of competence, motivation, and innovative thinking. The views of local and international scholars are comparatively studied.
Keywords: engineering education, professional training, competence, social psychology, motivation, innovation, engineering thinking, educational strategy

Jamiyat taraqqiyoti sharoitida bo‘lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik va ta’limiy strategik yo‘nalishlari

Nazarova Marg‘uba Gulamovna (katta o‘qituvchi)[1]
nazarovamarguba85@gmail.com | ORCID: 0009-0006-1942-9423
[1.] Olmaliq davlat texnika instituti
Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya.
Ushbu maqolada bo‘lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik va ta’limiy strategik yo‘nalishlari tahlil qilingan. Globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida muhandis kadrlar tayyorlashning pedagogik va psixologik asoslari, shuningdek kompetensiya, motivatsiya va innovatsion fikrlashning o‘rni yoritilgan. Mahalliy va xorijiy olimlar qarashlari qiyosiy o‘rganilgan.
Kalit so‘zlar: muhandislik ta’limi, kasbiy tayyorgarlik, kompetensiya, ijtimoiy psixologiya, motivatsiya, innovatsiya, injenerlik tafakkuri, ta’lim strategiyasi

Bugungi kunda ta’lim, ilm-fan va madaniyat sohalarining integratsiyasi jamiyat rivojining asosiy omili sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini faqat texnik tayyorgarlik sifatida emas, balki ijtimoiy-psixologik, madaniy va innovatsion jarayon sifatida tahlil qilish dolzarb hisoblanadi. Chunki zamonaviy muhandislik faoliyati murakkab tizimli muhitda amalga oshadi va u faqat maxsus texnik bilimlarni emas, balki keng dunyoqarash, ijtimoiy mas’uliyat, kommunikativ kompetensiya hamda jamoada ishlash ko‘nikmalarini ham talab qiladi.

Shu bilan birga, muhandislarni tayyorlash jarayonida shaxsning motivatsion sohasi, kasbga bo‘lgan qiziqishi va ichki tayyorgarligi alohida ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy-psixologik omillar ta’sirida talabaning kasbiy shakllanishi tezlashadi va u real ishlab chiqarish sharoitiga moslashish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ta’lim jarayoni faqat bilim berish emas, balki shaxsni kompleks rivojlantirishga yo‘naltirilgan tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Bundan tashqari, global raqobat sharoitida muhandislik faoliyati doimiy ravishda yangilanib borayotgan texnologiyalar bilan bog‘liq bo‘lib, bu esa talabalarda innovatsion fikrlash, muammolarni tizimli tahlil qilish va kreativ yechimlar topish qobiliyatini shakllantirishni talab qiladi. Shu sababli muhandis kadrlarni tayyorlashda ta’lim, psixologiya va injenerlik tafakkurining uyg‘unligi strategik ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv asosiy o‘rinni egallaydi. Unga ko‘ra, ta’lim natijasi sifatida talabaning bilimlari emas, balki uning faoliyatga tayyorligi baholanadi. Bunday yondashuv ta’lim jarayonini natijaga yo‘naltirilgan tizim sifatida tashkil etish imkonini berib, talabaning nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

Xorijiy va mahalliy olimlarning ushbu mavzuga oid qarashlarini taxlil etsak, David McClelland (AQSH, ijtimoiy psixologiya (motivatsiya nazariyasi)) o‘z tadqiqotlarida inson faoliyati samaradorligini aniqlovchi asosiy omil sifatida kompetensiyalarni ko‘rsatadi[8]. Uning yondashuviga ko‘ra, insonning muvaffaqiyati faqat intellektual bilimlarga emas, balki uning amaliy ko‘nikmalari, motivatsiyasi va shaxsiy sifatlariga ham bog‘liqdir. Bu g‘oya muhandislarni tayyorlash jarayonida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarurligini asoslab beradi.

Bu yondashuv muhandislarni tayyorlashda ham dolzarb bo‘lib, ularda kasbiy, kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishni talab etadi. Chunki zamonaviy muhandis faqat texnik vazifalarni bajaruvchi mutaxassis emas, balki jamoada samarali ishlay oladigan, muloqot qiladigan va muammolarni kompleks hal eta oladigan shaxs bo‘lishi kerak.

Shu bilan birga, O‘ktam Shamsiev ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni ilgari surib, talabaning mustaqil fikrlashi va faolligini oshirish muhimligini ta’kidlaydi[10]. Uning qarashlariga ko‘ra, ta’lim faqat bilim berish jarayoni emas, balki shaxsning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan tizim bo‘lishi lozim.

Bugungi kunda muhandislarni tayyorlashda quyidagi metodologik yondashuvlar muhim hisoblanadi:

- kompetensiyaviy yondashuv
- faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim
- integrativ ta’lim modellari
- dual ta’lim tizimi

Ushbu yondashuvlar talabalarni nazariy bilimlardan tashqari real ishlab chiqarish sharoitiga yaqinlashtirish, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish hamda kasbiy muhitga tez moslashish imkonini beradi. Shu orqali bo‘lajak muhandislarda mustaqil qaror qabul qilish, tizimli fikrlash va innovatsion yondashuvni shakllantirish ta’minlanadi.

Muhandislik ta’limida texnik olimlar qarashlari va integrativ yondashuvlari.

Muhandis kadrlarni tayyorlash jarayoni faqat pedagogik va psixologik omillar bilan emas, balki injenerlik tafakkuri va texnik tizimli yondashuvlar bilan ham belgilanadi. Zamonaviy muhandislik ta’limida nazariya va amaliyot uyg‘unligi, tizimli fikrlash, innovatsion yechimlar ishlab chiqish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini chuqur anglash asosiy o‘rinni egallaydi. Peter Drucker (Avstriya/AQSH, menejment va bilim iqtisodiyoti) ta’kidlashicha, zamonaviy iqtisodiyotda bilimli ishchi kuch asosiy resurs hisoblanadi, ammo u bilimni amaliy natijaga aylantira olishi kerak[2]. Uning fikrlari muhandis kadrlarni tayyorlashda nazariyani amaliyot bilan bog‘lash, bilimni real ishlab chiqarish jarayonlariga tatbiq etish zarurligini ko‘rsatadi. Bu esa ta’lim tizimida “bilim + amaliy qo‘llash” tamoyilining ustuvorligini asoslaydi. Henry Ford (AQSH, sanoat muhandisligi) ishlab chiqarish jarayonlarini standartlashtirish orqali muhandislikda samaradorlikni oshirish imkonini ko‘rsatgan[3]. Uning konveyer tizimiga asoslangan yondashuvi muhandislarda tizimli fikrlash, jarayonlarni bosqichma-bosqich tahlil qilish va optimallashtirish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa zamonaviy muhandislikda jarayonli (process-oriented) yondashuvning muhimligini anglatadi. W.E.Deming (AQSH, sifat menejmenti) esa “uzluksiz takomillashtirish” tamoyilini ilgari surib, har bir injenerlik jarayoni doimiy rivojlantirilishi kerakligini ta’kidlaydi[1]. Uning konsepsiyasiga ko‘ra, sifatli muhandislik faoliyati tizimli nazorat, tahlil va doimiy yaxshilash jarayoniga asoslanadi. Bu esa muhandislarda tanqidiy fikrlash va mas’uliyatli yondashuvni shakllantiradi. Muhandislik ta’limida yana bir muhim ilmiy asos sifatida Herbert Simonning (AQSH, qaror qabul qilish nazariyasi, kognitiv ilm) “cheklangan ratsionallik” nazariyasi alohida ahamiyatga ega. Uning fikricha, muhandislar qaror qabul qilishda barcha ma’lumotni emas, balki eng maqbul yechimni tanlashga intiladi[11]. Bu yondashuv murakkab texnik tizimlarda tez va samarali qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, Thomas Kuhn (AQSH, fan falsafasi) ilm-fan rivoji paradigmalar almashinuvi orqali sodir bo‘lishini asoslab, muhandislik sohasida ham yangi texnologiyalar va yondashuvlar eski modellarning o‘rnini egallashini ta’kidlaydi[7]. Bu muhandislarda innovatsion fikrlash va yangi texnologik paradigmalarni qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi.

Shu asosda, xalqaro injenerlik ta’limi standartlariga ko‘ra (ABET), muhandislarda quyidagi kompetensiyalar shakllanishi zarur:

- texnik muammolarni hal qilish
- jamoada ishlash
- professional etika
- uzluksiz o‘qish qobiliyati
- analitik va tizimli fikrlash
- innovatsion qarorlar qabul qilish

Ushbu kompetensiyalar muhandislarni nafaqat texnik jihatdan, balki intellektual va ijtimoiy jihatdan ham barkamol mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy-psixologik omillar va kasbiy shakllanish

Muhandislarni tayyorlash jarayonida ijtimoiy-psixologik omillar alohida o‘rin tutadi. Chunki kasbiy faoliyat faqat texnik bilim va ko‘nikmalar bilan emas, balki shaxsning ichki psixologik holati, ijtimoiy muhitga moslashuvi va shaxslararo munosabatlarni samarali boshqara olishi bilan ham belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, muhandis shaxsi faqat mutaxassis sifatida emas, balki jamoada faol ishtirok eta oladigan, mas’uliyatni his qiladigan va qaror qabul qila oladigan ijtimoiy subyekt sifatida shakllanadi. V.Karimova (O‘zbekiston, ijtimoiy psixologiya) ta’kidlaganidek, shaxsning kasbiy shakllanishi ijtimoiy muhit va muloqot jarayonlari bilan uzviy bog‘liq[5]. Uning ilmiy qarashlariga ko‘ra, shaxs rivoji ta’lim muhiti, guruhiy ta’sir va ijtimoiy munosabatlar tizimi orqali amalga oshadi. Bu esa muhandislarni tayyorlashda ham kommunikativ muhitni rivojlantirish, jamoaviy faoliyatni kuchaytirish muhim ekanligini ko‘rsatadi. Z.Nishonova (O‘zbekiston, kasbiy psixologiya) ishlarida kasbiy faoliyat samaradorligi ichki motivatsiya va kasbni anglashga bog‘liq ekanligi asoslangan[9]. Uning fikricha, insonning kasbga bo‘lgan munosabati, uning shaxsiy qiziqishi va ichki ehtiyoji kasbiy barqarorlikni belgilaydi. Shu bois muhandislarni tayyorlash jarayonida talabalarda kasbga nisbatan ongli munosabat va ichki motivatsiyani shakllantirish muhim ahamiyatga ega. E.G‘oziyev (O‘zbekiston, umumiy psixologiya) esa shaxs rivojida ijtimoiy muhit hal qiluvchi rol o‘ynashini ta’kidlaydi[4]. Uning yondashuviga ko‘ra, insonning xulq-atvori, qaror qabul qilish jarayonlari va shaxsiy sifatlari ko‘p jihatdan uni o‘rab turgan ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanadi. Bu esa muhandislik ta’limida tarbiyaviy muhitni to‘g‘ri tashkil etish muhimligini anglatadi.

Shu nuqtai nazardan, muhandislarda quyidagi ijtimoiy-psixologik kompetensiyalar shakllantirilishi zarur:

- kasbiy motivatsiya va maqsadga yo‘naltirilganlik
- ijtimoiy kompetentlik va muloqot madaniyati
- mas’uliyat hissi va kasbiy etika
- stressga chidamlilik va emotsional barqarorlik
- jamoada ishlash va liderlik qobiliyati

Bu kompetensiyalar muhandislarni nafaqat texnik jihatdan, balki ijtimoiy va psixologik jihatdan ham barqaror va raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu orqali ular murakkab ishlab chiqarish muhitida samarali faoliyat yuritish, qaror qabul qilish va innovatsion jarayonlarda faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. D.S.Karshiyeva (O‘zbekiston, kasbiy ta’lim psixologiyasi) ishlarida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda kompleks yondashuv zarurligi asoslanadi. Uning ilmiy qarashlarida kasbiy tayyorgarlik faqat bilim berish jarayoni sifatida emas, balki shaxsning umumiy rivojlanishini ta’minlovchi integrativ pedagogik-psixologik tizim sifatida talqin qilinadi.[6] Bu yondashuv muhandis kadrlarni tayyorlashda nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar va shaxsiy-psixologik xususiyatlarni uyg‘un holda shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi. Uning fikricha, kasbiy tayyorgarlik integrativ jarayon bo‘lib, unda ta’lim mazmuni, metodlari va tashkil etish shakllari o‘zaro bog‘liq holda amalga oshirilishi lozim. Bunday yondashuv talabalarda nafaqat professional bilimlarni, balki ularni real ishlab chiqarish muhitiga moslashtiruvchi amaliy kompetensiyalarni ham rivojlantiradi. Shuningdek, psixologik xususiyatlarni hisobga olish ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Talabalarning individual qobiliyatlari, shaxsiy temperamenti, stressga bardoshliligi va kommunikatsion ko‘nikmalari kasbiy shakllanish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Shu bois ta’lim jarayonida har bir talaba bilan individual ishlash, uning psixologik holatini inobatga olish zarur hisoblanadi. D.S.Karshiyeva. qarashlarida motivatsiya kasbiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin qilinadi.[6] Motivatsiyaning yuqori darajasi talabalarda kasbga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi, mustaqil bilim olishga intilishni oshiradi hamda ularni doimiy rivojlanishga undaydi. Shu nuqtai nazardan, ta’lim jarayonida ichki motivatsiyani shakllantirish va qo‘llab-quvvatlash bo‘lajak muhandislarni tayyorlashning muhim pedagogik vazifalaridan biri hisoblanadi. Umuman olganda,

D.S.Karshiyeva ilmiy qarashlari muhandis kadrlarni tayyorlashda ta’lim, psixologiya va amaliy faoliyatning uzviy bog‘liqligini ta’minlash zarurligini asoslab beradi. Bu esa zamonaviy talablarga javob beradigan, raqobatbardosh va innovatsion fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlashda muhim nazariy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Amaliy takliflar

Bo‘lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida quyidagi amaliy takliflarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu takliflar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ularni zamonaviy mehnat bozori talablariga moslashtirishga xizmat qiladi.

Birinchi navbatda, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish dolzarb hisoblanadi. Zamonaviy muhandislik sohasi sun’iy intellekt, avtomatlashtirish tizimlari va raqamli modellashtirish texnologiyalariga asoslanganligi sababli, talabalarda raqamli savodxonlik va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish zarur.

Ikkinchidan, dual ta’lim tizimini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Nazariy bilimlarni ishlab chiqarish amaliyoti bilan uyg‘unlashtirish talabalarga real ish sharoitiga moslashish imkonini beradi hamda ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshiradi. Bu esa ta’lim muassasalari va sanoat korxonalari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishni talab etadi.

Uchinchidan, talabalarda soft skills, ya’ni kommunikativlik, jamoada ishlash, liderlik, vaqtni boshqarish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish muhimdir. Chunki zamonaviy muhandis faqat texnik bilimlarga ega bo‘libgina qolmay, balki ijtimoiy muhitda samarali muloqot qila oladigan va jamoa bilan ishlay oladigan shaxs bo‘lishi kerak.

To‘rtinchidan, talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga keng jalb etish zarur. Bu ularda tanqidiy fikrlash, innovatsion g‘oyalar yaratish va muammolarga ilmiy yondashish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu orqali bo‘lajak muhandislar ilmiy-amaliy izlanishlarga yo‘naltirilgan kasbiy pozitsiyaga ega bo‘ladilar.

Beshinchidan, psixologik tayyorgarlikni kuchaytirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Talabalarda stressga chidamlilik, emotsional barqarorlik, o‘z-o‘zini boshqarish va kasbiy ishonchni shakllantirish ularning kelgusidagi murakkab ish sharoitlariga moslashish imkoniyatini oshiradi.

Xulosa

Bo‘lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jamiyat taraqqiyotining strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki zamonaviy global raqobat sharoitida yuqori malakali muhandis kadrlar iqtisodiy barqarorlik, innovatsion rivojlanish va texnologik taraqqiyotning asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi.

Bu jarayonda ta’lim, ilm-fan, psixologiya va injenerlik tafakkurining o‘zaro integratsiyasi muhim ahamiyatga ega. Ushbu yo‘nalishlarning uyg‘unligi talabalarda nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarni, balki ijtimoiy mas’uliyat, ijodiy yondashuv va innovatsion fikrlash qobiliyatini ham shakllantiradi. Shu asosda tayyorlangan raqobatbardosh muhandis kadrlar jamiyatning innovatsion rivojlanishini ta’minlaydi, sanoat va texnologiya sohalarining modernizatsiyasini jadallashtiradi hamda mamlakatning global iqtisodiy tizimdagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

References

1. Deming, W. E. (1986). Out of the Crisis. MIT Press.
2. Drucker, P. F. (1993). Post-Capitalist Society. HarperBusiness.
3. Ford, H. (1922). My Life and Work. Doubleday.
4. G‘oziyev, E. (2010). Umumiy psixologiya. Toshkent: O‘zbekiston NMIU.
5. Karimova, V. (2015). Ijtimoiy psixologiya. Toshkent: Fan.
6. Karshiyeva, D. S. (2022). Kasbiy ta’lim psixologiyasi. Toshkent: OTM nashriyoti.
7. Kuhn, T. S. (1962). The Structure of Scientific Revolutions. University of Chicago Press.
8. McClelland, D. C. (1961). The Achieving Society. Princeton University Press.
9. Nishonova, Z. (2018). Kasbiy psixologiya asoslari. Toshkent: Universitet nashriyoti.
10. Shamsiev, O. (2019). Pedagogika asoslari. Toshkent: O‘qituvchi.
11. Simon, H. A. (1957). Administrative Behavior. Macmillan.